


## YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–mart oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 7000,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 10,0 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,4 % ga yetdi.




### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

		Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	<b>I. YaHM</b>	<b>5 770,5</b>	<b>7 000,9</b>	<b>110,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 375,9	6 566,6	109,1
	Mahsulotlarga sof soliqlar	394,6	434,3	123,0
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 375,9</b>	<b>6 566,6</b>	<b>109,1</b>
	<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 229,8</b>	<b>1 433,6</b>	<b>102,7</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 678,3</b>	<b>2 355,0</b>	<b>124,2</b>
	sanoat	1 251,8	1 794,2	124,1

		Mlrd. so‘m		O‘sinh sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	426,5	560,8	124,4
	<b>Xizmatlar</b>	<b>2 467,8</b>	<b>2 778,0</b>	<b>102,0</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	493,3	558,3	100,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	374,4	428,5	103,3
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 600,1	1 791,2	102,2

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2094,8 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 93,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 6,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 21,8 % ni, sanoat tarmog‘i 27,3 % ni, qurilish 8,5 % ni va xizmatlar sohasi 42,4 % ni tashkil qildi.




### Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YaHM tarkibi (jamiqa nisbatan % da)

		2020-yil	2021-yil
	<b>I. YaHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	93,2	93,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6,8	6,2
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>22,9</b>	<b>21,8</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)</b>	<b>31,2</b>	<b>35,8</b>
	sanoat	23,3	27,3
	qurilish	7,9	8,5
	<b>Xizmatlar</b>	<b>45,9</b>	<b>42,4</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9,2	8,5
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,0	6,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	29,7	27,4




## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 102,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 21,8 %), sanoatda – 124,1 % (27,3 %), qurilishda – 124,4 % (8,5 %), xizmatlar sohasida – 102,0 % ni (42,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 100,3 % (8,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 103,3 % (6,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (27,4 %) iborat bo'ldi.



## Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2020- yil yanvar-martida 0,6 f.p.), sanoat tarmog'i 5,2 f.p. (2020- yil yanvar-martida salbiy 3,2 f.p.) va qurilish tarmog'i 1,8 f.p. (2020- yil yanvar-martida salbiy 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi 0,9 f.p. (2020- yil yanvar-martida 2,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 1,5 f.p. (2020- yil yanvar-martida salbiy 0,3 f.p.) ga ko'paydi.



2021- yil yanvar-mart oylarida YaHM o'sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiqa nisbatan % da)







2021- yil yanvar-martda YaHM deflyatori indeksi 2020- yil yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,5 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,5 % qayd etildi.



## Yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-mart oylarida YaHMda kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 53,9 %ni tashkil qildi (2020- yil yanvar-martida – 57,0 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.